



## SIYOSIY HUQUQLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI.

**Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti. Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolarning davlat boshqaruvi, davlat organlarini tuzish va ularni ishida ishtirok etish, shuningdek, siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrini bildirishini ta'minlaydigan siyosiy huquqlarning inson hayotidagi o'rni va ro'li qanchalik muhimligi tizimli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, huquq, erkinlik, referendum, davlat boshqaruvi, davlat organi, siyosiy partiya, kasaba uyushmasi, xalq, fuqaro.

## РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРАВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

**Вапаев Каримбой Музаффар угли**

*Ташкентский государственный юридический университет. Студент 1 курса факультета уголовного правосудия.*

**Аннотация:** В данной статье системно анализируются роль и значение политических прав в жизни человека, которые обеспечивают участие граждан в формировании государственного управления и государственных органов, а также выражение своего мнения о политике и государственной деятельности.

**Ключевые слова:** Конституция, закон, свобода, referendum, государственное управление, государственный орган, политическая партия, профсоюз, народ, гражданин.

## THE ROLE OF POLITICAL RIGHTS IN HUMAN LIFE.

**Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li**

*Tashkent State Law University. 1st year student of the Faculty of Criminal Justice.*

**Abstract:** This article systematically analyzes the role and importance of political rights in human life, which ensure citizens' participation in the formation of state administration and state bodies, as well as expressing their opinion about politics and state activities.

**Key words:** Constitution, law, freedom, referendum, state administration, state body, political party, trade union, people, citizen.

Kirish.

Tarixda insonlar o'z haq-huquqlari uchun kurashmagan davr bo'lmagan. Kishilarning o'z huquqlari uchun kurash jarayoni insonning munosib hayot keshirishi





yoqlangan bir qator ta'limot va nazariyalar vujudga keldi. Uyg'onish davri mutaffakirlaridan biri Sharqning buyuk huquqshunosi Burhoniddin al-Malg'inoniy har bir insonning tabiiy huquqlariga, shu davlatni fuqarosi ekanligi yoki fuqarosi bo'lmasligidan qat'iy nazar, rioya etilishini qonuniylashtirish va ta'minlash zarurligi to'g'risidagi g'oyalarni yoqladilar. O'sha davrdan boshlab davlat institutiga (tashkilotiga) inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtayi-nazaridan yondashilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, inson va fuqaralarni huquqlar uch guruhga bo'linadi. Bular: shaxsiy huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va siyosiy huquqlar.

Endi siyosiy huquqlar atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, siyosiy huquqlar bu asosan fuqarolik bilan bog'liq bo'lib, u tegishli davlat fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlar davlatning harakteridan kelib chiqib, o'z fuqarolari uchungina o'rnatiladi. Shu o'rinda asosiy qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda inson va fuqarolarning siyosiy huquqlariga alohida bob va moddalar ajratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VIII bobi "Siyosiy huquqlar" deb nomlanib unda bevosita fuqarolar hayoti va ularni davlat boshqaruvini shakllantirishdagi o'rni va ro'lini har yoqlama ko'rsatib beradigan to'rtta modda 32-35 moddalar mavjud. Konstitutsiyamizda siyosiy huquqlarga alohida bobning ajratilishi alohida muhim voqealidir. Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar davlat organlarini tuzish ularni faoliyatida ishtirok etish, davlat organlari va mansabdor shaxslar ustidan nazorat olib borish, qonunlarni yartilishida ishtirok etish va eng asosiysi siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu o'rinda Konstitutsiyamizni boshqa davlatlar Yevropaning rivojlangan davlatlar Fransiya, Germaniya, Rossiya, Daniya kabi davlatlar Konstitutsiyalari bilan solishtirib ko'rib shunday xulosaga kelish mumkinki, ularni konstitutsiyasida siyosiy huquqlar uchun alohida bob va moddalar ajratilmagan ekanligini anglashimiz mumkin. Bu bir tarafdin olib qaraganda bizni davlat fuqarolar uchun bir ustun jihatdir ya'ni fuqarolar davlatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy huquqlar faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishlimi? degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga quyidagicha javob va izoh berish mumkin. Siyosiy huquqlar bir tarafdin olib qaraganada, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun ham taaluqlidir. Misol qiladigan bo'lsak, chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham jamoat birlashmalarida qatnashish, davlat organlari va mansabdor shaxslarga ariza va shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega, lekin taklif bilan murojaat qila olmaydilar. Chunki taklif davlat hayotiga tegishli masalalar bo'yicha beriladi. Yana boshqa tarafdin olib qaraydigan bo'lsak, chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar saylov huquqidan foydalana olmaydilar chunki saylov kodeksi va saylov to'g'risidagi qonunga ko'ra saylov huquqiga faqat O'zbekiston fuqarolari egadirlar.





Saylov huquqiga fuqarolar malum bir yoshga ya'ni 18 yoshga to'lganda ega bo'ladilar. Shundan ko'rinib turibdiki siyosiy huquqlarga fuqarolar malum bir yoshdan ega bo'ladilar. Saylovda qatnashish uchun ma'lum bir yosh chegarasi belgilangani kabi saylanish huquqidan foydalanish uchun ham ma'lum yoshga yetgan bo'lish lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasida fuqarolar Oliy Majlis deputatligiga 25 yoshdan, Prezidentlikka 35 yoshdan saylanish huquqiga egadirlar. "...Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati va vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi..."

Yana bir ahamiyatli jihati sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan fuqarolar saylashi mumkin emas va saylovda qatnasha olmaydilar degan jumlar Konstitutsiyamizning 117-moddasida belgilangan edi. Ammo 2019-yili ushbu normaga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, jazoni ijro etish joylarida saqlanayotganlar saylovda qatnasha oladilar, lekin og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan fuqarolar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 32-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi deb belgilab qo'yilgan. Bevosita ya'ni to'g'ridan to'g'ri demakratiya, bunda xalq davlat ishlarini vakillarsiz o'zi hal qiladi. Saylov, referendum, fuqarolar murojaati, qonunlar loyihasi muhokamasi orqali erishiladi. Bilvosita ya'ni vakillik demokratiyasi, unda xalq suveren huquqlaridan foydalanib, o'zlari saylab qo'ygan vakillar orqali (deputatlar va senatorlar) orqali amalga oshiradilar. Demak fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki eng avvalo davlat va jamiyatning boshqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni bu fuqarolarning jamiyat va davlat ishlari boshqarish huquqidir.

O.T.Husanov fuqarolarning jamiyat ishlaridagi faoliyatini bevosita fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirish haqida shunday fikr bildiradi. Mamlakatimizda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki huquqini ta'minlovchi vositalardan biri o'zini o'zi boshqarish hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish organlari butun mamlakat hududida qishloq shaharcha va shahardagi mahallalarda tuziladigan fuqarolar yig'ini bo'lib, ular barcha 18 yoshga yetgan fuqarolarni qamrab oladi. Fuqarolar fuqarolar yig'inida ishtirok etib, uning organlarini tuzishda qatnashadi va shu asosda jamiyat ishlarida ishtirok etadi. Fuqarolarning siyosiy faollik asosida jamiyat hayotida ishtirok etishi zaruratsdir. Fuqarolarning siyosiy faolligi ularga Konstitutsiya va qonunlar asosida beriladigan va kafolatlangan siyosiy huquqlar orqali kafolatlanadi. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar orqali namoyon qilishi mumkin. Lekin








miting, namoyish, va yig'ilishlar qonun asosida amalga oshirilishi kerak, ularni amalga oshirilishi natijasida boshqa kishilarning, fuqarolarning manfaati, huquqi buzilmasligi kerak. Masalan bunday harakatlar natijasida yo'llarda transport harakatlari to'xtab qolishi, fuqarolar o'zlari uchun muhim mashg'ulotlaridan foydalana olmay qoladilar. Miting, yig'ilish va namoyishlarni qonun doirasidan chiqib ketishi natijasida bugungi kunda ko'plab davlatlarda tartibsizliklarni kelib chiqishi va oqibatda fuqarolarning mol-mulkiga ham putur yetkazilishi kabi holatlar uchramoqda. Ushbu normani sanksiya qismi ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 217-moddasida: „Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish tartibini buzish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan“. Siyosiy huquqlarga fuqarolarning turli jamoat birlashmalari, harakatlarini tashkil qilish va ularga a'zo bo'lib kirish huquqlari ham misol bo'la oladi. Tashkilot, korxonalar, muassasalarda fuqarolar o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilashni yo'lga qo'yish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashadi. O'zbekiston demokratik davlat qurishni shunchaki vazifa qilib qo'ymasdan uni barcha xususiyatlarini mujassamlashtirish choralarini ko'rmoqda ko'ppartiyaviylik tizimi, fikrlar xilma-xilligi, fikrlash erkinligi g'oyalari shakillantirildi. 2017-yil 7-fevralda Harakatlar strategiyasini qabul qilindi unda bir qancha vazifalar belgilangan va samaradorligini ta'minlash maqsadida 2017-yil 14-fevralda yangi nodavlat-notijorat tashkilot - „Taraqqiyot strategiyasi“ markazi tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yili 13-fevraldagi qarori bilan „Yuksalish“ umummilliy harakatlari tashkil etilib unda xorijdagi millatdoshlarimizni islohatlarga jalb etish vazifasi yuklatilgan.

Siyosiy huquqlarning eng asosiylaridan yana biri bu fuqarolarni murojaatlaridir. Bu inson huquqlarini yana ham mustahkamlashga xizmat qiladigan davlat tomonidan kafolatlash yoki davlatdan talab qilish huquqi. Murojaat asosan uch turga bo'linadi: ariza, taklif, shikoyat. Arizani fuqarolar o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun ko'mak so'rab qilgan murojaatidir. Taklif esa fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish maqsadida bildirgan fikridir. Shikoyat esa buzilgan huquqlarni himoya qilish uchun so'rab qilgan murojaatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqiga ega degan norma bayon etilgan. Bugunga kunda fuqarolarning murojaatlari og'zaki, yozma va shu bilan birga elektron shakillarda ya'ni aloqa vositalari orqali ham murojaat qilishlari mumkin. Bu murojaatlar tegishli davlat organlari tomonidan vaqtida va joyida o'rganilib yechim topilmoqda. O'zbekistonda murojaatlarni ko'rish tartibi va muddati, bu boradagi vakolatli organlar, mansabdor shaxslarning huquq va burchlari maxsus qonun bilan belgilanadi. Fuqarolarning murojaatlariga keyingi vaqtda e'tibor yanada kuchaytirildi. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-sentabrdagi „Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora tadbirlar“ to'g'risidagi farmonni keltirish mumkin.





Murojaatlar bilan ishlash va ularning keng ko'lamli ahamiyatini davlat rahbari tashabbusi bilan „xalq qabulxona“ lari va „virtual qabulxonalar“ning qabul qilinishi yanada yuqori baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy huquqlarni inson hayotidagi o'rni beqiyosdir. Siyosiy huquqlar Konstitutsiyamizda huquq va erkinliklarni mustahkamlash bilan, fuqarolar zimmasiga katta ma'suliyat ham yuklaydi. Fuqarolar saylov, referendum, siyosiy partiyalarga birlashish, jamoat birlashmalariga uyushish va davlat organlariga murojaati orqali siyosiy huquqlarini amalga oshiradilar. Fuqarolar o'zlariga berilgan huquqlardan unumli foydalanib, shaxs va jamiyat shuningdek davlat manfaatlarini hurmat qilib uning faoliyatida va davlat hokimiyatini shakillantirishda ishtirok etishlari bilan o'zlarining ijtimoiy faolliklarini namoyish qiladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Normativ huquqiy hujjatlar.

1 O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi: 2021-yil 1-sentabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan.-Toshkent „O'zbekiston“ -2021.

2 O'zbekiston Respublikasining „Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida“ gi Qonuni 2017-yil 11-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan.

O'quv ilmiy adabiyotlar.

1 G.M.Tansikboyeva,V.A.Kostetskiy „Kanstitutsiyaviy huquq asoslari“ darslik.To'ldirilgan va qayta ishlangan sakkizinchi nashr.-T.:„Sharq“ 2019

2 Karimov.I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- „O'zbekiston“,2010.

3 Husanov O.T.Konstitutsiyaviy huquq: darslik.To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. –Toshkent:Yuridik adabiyotlar publish,2020.

4 Kanstitutsiyaviy huquq faniga kirish. 6-nashr.Darslik.Mas'ul muharrir y.f.d.,professor v.b I.R.Bekov//F.F.Umirov,-Toshkent:Lesson Press nashriyoti,2021.

